

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE HISTORIAL DEVELOPMENT OF THE DEBATE GENRE IN TURKIC LITERATURE****Rahima Daminova**

Doctor of Philosophy in Philological Sciences
 Samarkand state institute of foreign languages
 Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: debate, discussion, genre development, argument, prose, poetry, revival, intaq, diagnosis, artistic image, folk belief.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: The article discusses the emergence of the debate genre in the history of Turkish literature, the debate “Winter and Summer”, which is considered the first example of this genre, and its content. The moral and philosophical essence of the debate “Hell – Paradise” created in the literature of later periods, in particular, belonging to the work of Ahmed Yassavi, is revealed.

TURKIY ADABIYOTDA MUNOZARA JANRINING TARIXIY TAKOMILI**Rahima Daminova**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
 Samarqand davlat chet tillar instituti
 Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: bahs, munozara, janr taraqqiyoti, tortishuv, nasr, nazm, jonlantirish, intoq, tashxis, badiiy tasvir, xalq e'tiqodi.

Annotatsiya: Maqolada turkiy adabiyot tarixida munozara janrining paydo bo'lishi, mazkur janrning ilk namunasi hisoblangan “Qish va yoz” munozarasi va mazmuni haqida fikr yuritiladi. Keyingi davrlar adabiyotida yaratilgan, xususan, Ahmad Yassaviy ijodiga mansub “Bihisht – Do'zah tortishuvi” munozarasi axloqiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЖАНРА МУНАЗАРЕ В ТЮРКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**Рахима Даминова**

Доктор философии по филологическим наукам,
 Самаркандский государственный институт иностранных языков
 Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дебаты, дискуссия, развитие жанра, аргумент, проза, поэзия, возрождение, интак, диагностика, художественный образ, народные верования.

Аннотация: В статье рассматривается возникновение жанра муназаре в истории турецкой литературы, муназара «Зима и лето», считающиеся первым образцом этого жанра, и их содержание. Раскрывается морально-философская сущность дебатов «Ад – Рай», созданных в литературе более поздних периодов, в частности, в творчестве Ахмада Яссави.

Kirish. Turkiy xalqlar adabiyoti ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Eramizdan oldingi davrlarda mavjud bo'lgan og'zaki ijod namunalari ayrim tarixiy asarlarda yozib qoldirilgan. Yozma holda yetib kelgan namunalarning eng qadimgisi O'rxun-Enasoy yodgorliklari hisoblanadi. Bu yodgorliklar nasriy usulda yaratilgan bo'lishiga qaramay, she'riyatga xos xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ko'plab tadqiqotlarda bu yodgorliklar turkiy she'riyatning o'ziga xos namunasi deb baholanadi.

Adabiyotlar sharxi. Xususan, B.Valixo'jaevning "O'zbek epik poeziyasi tarixidan" asarida quyidagi fikrlar keltiriladi: "Agar turkiy xalqlarning qadimgi adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, unda bizgacha yetib kelgan ko'pgina yodgorliklarning (xususan, O'rxun-Enasoy yodgorliklarining), poetik yo'lda, asosan, to'rtliklar tarzida bandlanuvchi she'rlar ekanligi ravshanlashadi" [3, 6-b.].

Olima I.A.Steblevaning "VI-VIII asrlarda turklar poeziyasi" asarida qadimgi turkiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlil etiladi. Olima bu kitobida turkiy she'riyatning to'rtlik shakli haqida gapirib, bu shaklning turkiy xalqlar qadimiy adabiyoti uchun xos bo'lgan va keng tarqalgan janr bo'lganligini aytadi [9, 32-b]. B.Valixo'jaev olimaning bu fikrlariga asoslanib, etuk va o'tkunch kabi janrlar haqida gapirib, bu janrlarning she'riy hikoyalar bo'lganligini qayd etadi.

Muhokama va natijalar. Adabiy janrlar barsha xalqlar adabiyotining muhim shakllari hisoblanadi. Ular paydo bo'lgandan boshlab nihoyatda uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tadi. Ana shu jarayonda ularning ko'pchiligi ayrim o'zgarishlarga uchraydi, takomillashib boradi. O'zgarish va takomillashish jarayonida janrning mazmuni ham, shakli ham o'zgartiriladi. Bunday holatni mumtoz adabiyotdagi deyarli barcha janrlarda, jumladan, munozarada ham kuzatish mumkin.

Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug'atida: "Munozara arabcha مناظرة so'zidan olingan bo'lib, "bahs, tortishuv" degan ma'nolarni anglatadi. Munozara – fors-tojik va turkiy xalqlar mumtoz adabiyotida turli narsa yoki jonivorlarning bahslashuvi, tortishuvi tarzida yozilgan badiiy asar. Munozara nasr uslubida ham, nazm uslubida ham yozilishi mumkin. Munozara

ko‘pincha qissadan hissa yoki muallifning asar voqealaridan chiqargan xulosasi bilan tugallanadi” deya ta’riflanadi [8, 146-b.].

Adabiyotshunos olim E.Rustamov mazkur janr haqida shunday deydi: “Munozara o‘z ustunligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan ikki qarama-qarshi tomonning kuchli bahsi, tortishuvi asosiga qurilgan badiiy asar” [7, 203-b.].

Munozara eng qadimgi janrlardan biri bo‘lib, deyarli barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Sharq xalqlari adabiyotida, xususan, arab va fors-tojik adabiyotida bu janrning eng qadimgi namunalari mavjud.

Turkiy adabiyotda bu janrning eng qadimgi namunasi sifatida “Yoz va qish” munozarasi tilga olinadi. Bu munozara “Devonu lug‘otit turk”ning turli o‘rinlarida keltiriladi. Abdurauf Fitrat “Devon”dagi 23 ta to‘rtlikni tiklab, yaxlit asar holiga keltiradi va shartli ravishda “Qish va yoz munozarasi” deb ataydi.

E.Rustamov bu munozara haqida shunday yozadi: “Qish va yoz” munozarasi turkiy tilli xalqlar adabiyotining e’tiborli qadimiy yodgorliklaridandir. Undagi bayon tarzini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, munozara – bu muayyan muallif tomonidan yaratilgan asardir. Munozara jonli xalq tilida yozilgan” [7, 203-b.].

“Qish bilan yoz” munozarasida dastlab qishning yozga o‘tish pallasini tasvirlanadi. Erta bahorda sovuq shamol turib, qor havosi, sovuq dunyoni bosib olmoqchi bo‘ladi. El titrab, tish qoqib uyga kiradi. Qora bulut qichqirib turadi.

Keldi esin esnayu,
Qazqa tugal o‘snayu,
Kardi budun qusnayu,
Qora bulut ko‘krashur [5, 259-b.].

Mazmuni:

Qor havosig‘a o‘xshab
Shamol esib keldi.
El titrab, tish qoqib uyga kirdi.
Qora bulut ko‘krab, qichqirib turadi.

Keyin qor va muzlar eriy boshlaydi. Havoda ko‘kchil bulutlar paydo bo‘lib, qayiq kabi har tomonga yura boshlaydi. Dunyoning hamma mavjudotida yangilanish, o‘zgarish yuz beradi. Rang-barang tushdagi gullar atrofni qoplaydi. Qushlarning zavq bilan sayrashi, qir-adirlarda jonivorlarning o‘ynoqlab yurishi, yomg‘ir yog‘ishi bilan inju qopchalarining (gullarning) ochilishi – bularning hammasi inson kayfiyatini ko‘taradi, ruhiyatiga ta’sir qiladi.

Qaqlar qamuğ kulardi,
Tağlar bashi ilardi,

Ajun tani yilirdi,
Turlu chechak yerkashur [4, 189-b.].

Mazmuni:

Qoq yerlar hammasi ko'lg'a aylandi,
Tog'lar boshi ilidi,
Dunyo issiq nafas oldi,
Turli-turli chechaklar bosh ko'tardi.

Shundan keyin yoz bilan qishning tortishuvi boshlanadi. Ularning har biri o'zlarining yaxshi sifatlarini aytib, maqtanishadi.

Qish yay bila to'qushti,
Qing'ir ko'zun baqishti,
Tutashqali yaqishti,
Utg'alimat o'g'rashur [4, 182-b.].

Mazmuni:

Qish bahor bilan to'qnashdi.
Bir-birlariga yomon ko'z bilan qarashdi.
Bir-birlarini tutish ushun yaqinlashdilar.
Ularning har biri yengishni istar edi.
Qish g'azab bilan gapga kirishadi va yozga qarab shunday deydi:

Qish yoyg'iru suvlanur:

Ar at manin tavratur,
Eklar yima savranur,
Atyin taqi ikrishur[6, 294-b.].

Mazmuni:

Qish yoz bilan tortishur:
Er, ot menda ortishur,
Kasalliklar qaytishur,
Kush-quvvatga to'lurlar.
Sanda qo'par chazanlar,
Qo'zg'o', sing'ak, yilanlar
Do'k ming qo'yo' to'manlar
Qo'zruq tikib yo'krushur [5, 243-b.].

Mazmuni:

Chivinlar, pashshalar senda kopayadi,
Minglarcha, o'n minglarcha chayonlar, ilonlar

Sendagina quyruqlarin tikib
Har tomon yugururlar.
Yoz ham o'z sifatlarini aytib, maqtanishga kirishadi:
Sanda qochar sundilaj,
Manda tinar qarg'ilaj,
Totlig' o'tar sandug'ach,
Arkak tishi ujrashur [6, 193-b.].

Mazmuni:

Sa'valar sendan qochadilar,
Qaldirg'ochlar menda tinadilar,
Menda bulbullar totli-totli sayraydilar,
Bu go'zal qushlarning erkak, tishi(urg'ochi)lari menda uchrashadilar.

Qishdagi qiyinshiliklar, noqulayliklar, odamlarning sovuq tufayli qiynalishlarini ta'na qiladi:

Balchiq baliq yug'rulur,
Jig'ay lig'ir yig'rilur,
Arangaklari ug'rulur,
Uzg'uj bila avrishur. [4, 249-b.].

Mazmuni:

(Senda) balchiqlar, loylar yo'g'rib aralashadi,
Kambag'allar sovuqdan burmalanib qoladilar,
U bechoralarning barmoqlari ayrilib tushgandek bo'ladi,
Ular olov bilan o'zlarini ovutadilar.

Bu tortishuvda, albatta, yoz g'alaba qiladi. Chunki yoz kishilarga to'kinchilik, xursandchilik olib keladi. Bu narsa, ya'ni yomonlik ustidan yaxshilikning g'alabasi xalq dunyoqarashi, ruhiyati bilan bog'liqdir. Munozarada tabiat haqiqiy xalq qo'shiqlariga xos badiiy soddalik, go'zal obrazlilik vositasi bilan tasvirlangan.

Munozaraga xos she'riy parchalar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida ham uchraydi.

Keying davrlarda munozaraning mazmuni va janri birmunsha o'zgardi. G'azal va boshqa ko'rinishdagi munozaralarda falsafiy, diniy mavzular namoyon bo'la boshladi. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asaridagi "Bihisht-do'zah tortishuvi", Sulaymon Boqirg'oniyning "Nafs va Ruh" munozarasi shunday asarlar jumlasidandir.

Ahmad Yassaviy Islom ma'rifati va shariati targ'ibotshisi sifatida boshqa hikmatlarida bo'lgani kabi bu munozarada ham ezgu insoniy qarashlarini tashviq etadi.

Bihisht, do‘zax taloshur, taloshmoqda bayon bor,

Do‘zax aytur: “Man ortuq, manda Fir‘avn, Homon bor”. [2, 231-b.].

Ushbu baytda Ahmad Yassaviy diniy axloqiy qadriyatlar asosida Bihisht va Do‘zax o‘rtasidagi farqni, ularning o‘zaro tortishuvi orqali ifodalaydi. Baytda asosiy e‘tibor yaxshilik va yomonlik, o‘zaro kurash, shuningdek, tarixiy- diniy timsollar orqali ifodalanadi. Bihisht va Do‘zax yaxshilik va yomonlik, savob va gunoh, iymon va kufr ramzi sifatida qaraladi. Qur‘onda Fir‘avn Misr fir‘avni, ya‘ni xalqqa zulm qiluvshi hukmdor sifatida tilga olinadi. Homon esa uning yordamdoshlaridan biri bo‘lib, zulm va kufr ramziy obrazlari sifatida ishlatiladi. Qur‘onda bu ikki shaxs haqida quyidagi oyatlar mavjud: 1. “Va halok etdik Qorunni va Fir‘avnni va Homonni. Batahqiq, kelib edi Muso ularga ravshan dalillar bilan va ular mamlakatda mutakabbirlik qildilar va qutulguvshilar emas edilar” (Ankabut, 29/39)

2. “Keyin dedi: “Men sizlarning ulug‘ Robbingizdirman!” Bas, giriftor qildi uni Alloh dunyo va oxirat azobiga”. (Noziat, 79/24-25)

Bu oyatlarga ishora qilish orqali Yassaviy Allohga isyon qilgan Qorun, ilohlik da‘vo qilgan Fir‘avn va vaziri Homonning joyi abadiy do‘zax ekanligini ta‘kidlaydi. Bihisht esa bunga qarshi, o‘zida Yusuf (sabr va halollik timsoli) va Kan‘on (adalat va kuch timsoli) borligini aytib, yovuzlikka nisbatan yaxshilikning kuchli va bardavom ekanligini bildiradi.

Bihisht aytur: “Ne der san, so‘zni bilmay aytursan,

Sanda Fir‘avn bor bo‘lsa, manda Yusuf Kan‘on bor.

Do‘zax aytur: “Man ortuq, baxil qullar manda bor,

Baxillarning bo‘ynida o‘tlug‘ zanjir-kishan bor.

Bu baytda do‘zax o‘zining asosiy “aholisidan” biri bo‘lgan baxil qullarning mavjudligini bilan faxrlanadi. Baxillarning bo‘ynidagi “o‘tlug‘ zanjir-kishan” ramzi orqali do‘zaxdagi azob, jazolar tasvirlanadi. Baxillik nafaqat dunyoda, balki oxiratda ham katta jazo keltiradi, chunki bu xislat odamni boshqalar bilan birlashmaslikka, mehr-oqibatdan uzoqlashishga olib keladi. Yassaviy baytda aynan mana shu fikrlarni ta‘kidlab o‘tadi.

Bihisht esa o‘zining afzalliklari, eng oliy sarkardalari – payg‘ambarlar ekanligini ta‘kidlaydi. Ular oldida Kavsar borligi, hur va g‘ilmon kabi jannat ahlining baxt-saodatini oshiruvchi ne‘matlar mavjudligi orqali jannatning go‘zalligi, sharaf va barokatini ifodalaydi:

Bihisht aytur: “Man ortuq, payg‘ambarlar manda bor,

Payg‘ambarlar oldida kavсар, hur-u g‘ilmon bor”.

Shu tariqa Do‘zax va Bihisht o‘rtasidagi munozara davom etadi. Do‘zax o‘zida tarso, juhud borligini, ularga turli azob-uqubat hozirligini, zolim qullar, munofiqlar, benomuslar borligi va ular ushun jazo muqarrar ekanligi bilan maqtanadi. Bihisht esa mo‘min qullar, olimlar, zokir qullar va ularga beriladigan mukofotlar bilan faxrlanadi.

Do‘zax aytur: “Man ortuq, benomuslar manda bor,

Benomuslar bo‘ynida ilon bilan shayon bor”.

Bihisht aytur, man ortuq, diydor ko‘rmak manda bor,

Diydorin ko‘rsatug‘a rahim otlig‘ Rahmon bor”. [2, 230-231-b.].

Do‘zax o‘zini benomuslar bilan boyitadi, ular azobga mahkum. Bu yerda o‘ta jiddiy axloqiy muammo – benomuslik va gunoh bilan bog‘liq og‘ir jazolar tasvirlangan. Bihisht esa o‘zining ulug‘ ne‘matlari – Allohning yuzini ko‘rish va Uning rahm-shafqati bilan faxrlanadi.

Baytlar orqali Ahmad Yassaviy do‘zaxdagi azoblar va uning asosiy aholisining xulq-atvorini ochib beradi, shuningdek, jannatdagi ulug‘ ne‘matlar va Allohning rahm-shafqatini ta’kidlaydi. Bu baytlar imonli insonlarni axloqiy poklik va Allohga bo‘lgan ishonch bilan yashashga undaydi.

Xulosa. Munozara janrining asosiy xususiyatlaridan biri undagi qahramonlar ramziy xarakterga ega bo‘lib, xalqning diniy e’tiqodlari, tabiat va inson haqidagi qarashlari, insonning turfa yaxshi-yomon xislatlarini namoyon etish hisoblanadi. Unda jonlantirish asosiy tasvir vositasi bo‘lib, shaxsning axloqiy sifatleri jonli va jonsiz ashyolar orqali oshib beriladi. Tashxis san’ati orqali jonsiz narsalarga inson harakatlari ko‘shiriladi va intoq vositasida nutqsiz jonivorlar yoki ashyolar nutq egasi sifatida tasvirlanadi. XV asrlar adabiyotida bu janrning go‘zal namunalari yaratildi. Yusuf Amiriyning “Bang va Chog‘ir”, Yaqiniyning “O‘q va Yoy”, Nishotiyning “Shahboz va Bulbul”, “Gul va Daf” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: 6 жилдлик. Ж. V. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 304 б.
2. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.-255 б.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик шеърляти тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974.–151 б.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. –Тошкент: ФАН, 1960. I том. 499 б.
5. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. –Тошкент: ФАН, 1961. II том. 428 б.
6. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. –Тошкент: ФАН, 1961. III том. 469 б.
7. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва: Наука, 1963. –365 б.
8. Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010.

9. Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. –Москва: Наука, 1971. –210 с.